O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022- YIL YANVAR-OKTABR***

***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



Sanoat **statistikasi**
**boshqarmasi**
**Tel.: 71-202-80-46**

# Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-oktabr oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-oktabr oylarida shahar korxonalari tomonidan 88,2 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (81,1 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 71,5 trln. so‘mni tashkil etdi.




***B** – Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** – Ishlab chiqaradigan sanoat **D** – Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E** – Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 9,1 % ga o’sishi kuzatildi. Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 17,5 % ga,elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 69,7 % ga o‘sishi hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash 7,9 %, pasayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,9 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,5 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
*(yanvar-oktabr oylarida, % da)*







**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

**Gaz kondensati**




**Tabiiy gaz**




**Neft**




**Shag‘al**




**Chaqiq tosh**



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar- oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Neft,** *ming t.* | 536,7 | 551,1 | 14,4 |
| **Tabiiy gaz,** *mln. kub.m.* | 29 900,4 | 29 457,8 | -442,6 |
| **Gaz kondensati,** *ming t.* | 611,1 | 600,7 | -10,4 |
| **Chaqiq tosh** *t.* | 829 411,6 | 21 179 66,4 | 1288554,8 |
| **Shag’al** *t.* | 12076,2 | | |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 71,5 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,1 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-oktabr oylarida, % da)



O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 7,6 % ni (2021- yilning yanvar-oktabr oylarida – 11,4 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 20,7 % (19,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 29,5 %  (31,9 %) va quyi texnologiyalisi – 42,2 % (36,9%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 27,6 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 15,0 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,9 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,7 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 26,4 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 132,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi –

7,6 % (2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,3%)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2022- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 12194,7 tonna makaron va shunga o’xshash un mahsulotlari ( 30,2 % ga oshgan), 49,2 ming tonna kunjara va qattiq chiqindilar (51,7 % ga oshgan),
1 695,7 mln dona tamaki mahsulotlari (15,5 %) hamda 12,9 ming tonna margarin va yormalar (8,7 % ga oshgan) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**O‘simlik yog‘l (tozalangan)**




**Margarin va yormalar**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Pivo**




**Aroq**




**Uzum vinosi**




**Tamaki mahsulotlari**




**Paxta kalavasi**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** *ming tonna.* | 66,2 | 59,7 | -6,4 |
| **Paxta kalavasi,** *ming tonna.* | 42,1 | 29,6 | -12,5 |
| **Margarin va yormalar** *ming tonna.* | 11,9 | 12,9 | 1,0 |
| **Pivo –** *mln litr* | 64,6 | 70,2 | 5,6 |
| **Traktorlar -** *dona* | 213,0 | 116,0 | -97,0 |
| **Sovutgich va muzlatgichlar -** *ming dona* | 415,3 | 632,8 | 217,5 |
| **Akril va vinil polimerlari asosidagi bo‘yoqlar va laklar,** t. | 13 237,0 | 13 576,0 | 339,0 |
| **Tamaki mahsulotlari,** *mln. dona* | 1 468,7 | 1 695,7 | 227,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 116 dona traktorlar ishlab chiqarildi, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 54,5 % ga kamaygan.

## Toshkent shaharda traktor ishlab chiqarish sanoati,
*yanvar-oktabr oylarida*







## Toshkent shaharda yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati
*yanvar-oktabr oylarida, dona*





## Metallurgiya sanoati

*(yanvar-oktabr)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 14,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 38,3 % ga ko’paygan bo‘lsa,

2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 15,3 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa, 136,9 % va ishlab chiqarish hajmi 10721,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(yanvar-oktabr oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 30,6 % ga ko’paygan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,3 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 12,4 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 3089,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-oktabr oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,3 %, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 17,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 8804,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.









## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-oktabr oylarida)*









Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 22,2 % ga oshgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,8 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 170,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 9833,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-oktabr oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 122,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 1,5 % ga kamaygan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 4208,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.









## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-oktabr oylarida)*









2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 110,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi 102,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1201,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-oktabr oylarida)*

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga koʻra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 96,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi 14,6 % ga kamaydi, ishlab chiqarish hajmi esa 2658,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



***FHI % da***




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-oktabr oylarida)*

***FHI % da***







2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga koʻra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 48,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 133,1 martaga ko’paygan boʻlib, ishlab chiqarish hajmi 306,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

*(yanvar-oktabr oylarida)*

*FHI % da*






2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 92,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 27,6 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 98,0 % ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 19 729,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(yanvar-oktabr oylarida)*

2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 114,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni, fizik hajm indeksi 117,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2756,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



*FHI % da*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-oktabr oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,3 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (4,8 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 69,7 % ga ko‘payganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

*(yanvar-oktabr oylarida, % da)*







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 279,8 | 2304,5 | 2024,7 |
| **Issiqlik energiyasi,** | 9900,8 | 9078,6 | -822,2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *ming gkal* | | | |
| **Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar,** *mln so 'm.* | 675,7 | 713,8 | 38,1 |

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-oktabr oylarida*

**trln. so'm**







**FHI *% da***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,6 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-oktabr oylarida, % da)*

**2021- y.**







**2022- y.**

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-oktabr | 2022- yil yanvar-oktabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar,** *mlrd.so'm* | 73,6 | 136,0 | 62,4 |
| **(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna** | 346,0 | 297,6 | -48,4 |
| **Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm** | 151,2 | 217,3 | 66,1 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo‘lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo‘yicha xizmatlar 14,0 % ga kamaydi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta’minlash 43,7 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo’yicha xizmatlar 84,9 % ga o’shish kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 39,1 trln.so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 122,0 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 44,4 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,5 % (2021-yil yanvar-oktabr oylarida 4,3 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to‘g‘ri kelib 15,9 % ni, shuningdek, Bektemir  tumani 14,9 % ni, Sirg’ali tumani 13,3 % ni hamda Chilonzor tumani 8,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bektemir (207,6 %), Shayxontoxur (160,8 %), Yangihayot (141,3 %), Mirobod (127,9 %), Mirzo Ulug’bek (126,8 %), Uchtepa

(124,0 %) tumanlarida hamda Yunusobod tumanida (122,3 %) qayd etildi.

**<u>Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati</u>**

*2022-yilning yanvar-oktabr oylarida*

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
|  | 39 128,1 | 100 | 122,0 |
| | **Toshkent shahri** | | |

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* | | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
|  | 3 223,3 | 8,2 | 124,0 |  | 5 831,6 | 14,9 | 207,6 |
| | **Uchtepa** | | | | **Bektemir** | | |
| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* | | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|  | 1 671,8 | 4,3 | 122,3 |  | 1 873,9 | 4,8 | 126,8 |
| | **Yunusobod** | | | | **Mirzo Ulug’bek** | | |
| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* | | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|  | 2 425,6 | 6,2 | 127,9 |  | 1 795,5 | 4,6 | 160,8 |
| | **Mirobod** | | | | **Shayxontoxur** | | |
| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* | | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|  | 3 345,8 | 8,6 | 111,3 |  | 5 214,9 | 13,3 | 117,7 |
| | **Olmazor** | | | | **Sirg’ali** | | |
| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* | | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|  | 1 974,8 | 5,0 | 113,2 |  | 6 215,4 | 15,9 | 98,7 |
| | **Yakkasaroy** | | | | **Yashnobod** | | |
| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* | | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|  | 2 256,3 | 5,8 | 141,3 |  | 3 300,2 | 8,4 | 88,6 |
| | **Yangihayot** | | | | **Chilonzor** | | |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to‘g‘ri kelib, 20,3 % shuningdek, Uchtepa 11,3 %, Chilonzor tumani 10,5 % ni, Mirobod tumani 10,3 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent shahri | 20 732,6 | 100 | 111,5 |
| Uchtepa | 2 338,0 | 11,3 | 122,7 |
| Bektemir | 571,8 | 2,8 | 123,8 |
| Yunusobod | 807,1 | 3,9 | 123,0 |
| Mirzo Ulug’bek | 1 458,3 | 7,0 | 128,6 |
| Mirobod | 2 126,4 | 10,3 | 130,0 |
| Shayxontoxur | 1 449,6 | 7,0 | 172,4 |
| Olmazor | 1 605,1 | 7,7 | 111,4 |
| Sirg’ali | 1553,6 | 7,5 | 107,0 |
| Yakkasaroy | 1 065,9 | 5,1 | 93,1 |
| Yashnobod | 4204,3 | 20,3 | 100,9 |
| Yangihayot | 1 369,8 | 6,6 | 126,4 |
| Chilonzor | 2 182,9 | 10,5 | 81,8 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to‘g‘ri kelib 30,9 % ni, shuningdek, Sirg’ali tumani 21,0 % ni, Olmazor tumani esa 10,2 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-oktabr oylarida*

**Toshkent shahri**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 17 018,6 | 100 | 142,5 |

**Uchtepa**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 884,3 | 5,2 | 127,5 |

**Bektemir**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 5257,2 | 30,9 | 224,2 |

**Yunusobod**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 783,1 | 4,6 | 126,5 |

**Mirzo Ulug’bek**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 415,6 | 2,4 | 120,8 |

**Mirobod**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 299,3 | 1,8 | 114,4 |

**Shayxontoxur**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 278,7 | 1,6 | 134,2 |

**Olmazor**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 1 740,7 | 10,2 | 111,2 |

**Sirg’ali**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 3 568,1 | 21,0 | 123,9 |

**Yakkasaroy**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 909,0 | 5,3 | 151,5 |

**Yashnobod**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 879,0 | 5,2 | 102,2 |

**Yangihayot**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 886,5 | 5,2 | 172,8 |

**Chilonzor**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 1 117,2 | 6,6 | 106,2 |

# Toshkent shahri  hududlari kesimida
# sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-oktabr oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent shahri | 88 196,9 | 100,0 | 107,0 |

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Uchtepa | 5 333,6 | 6,0 | 102,1 |
| Bektemir | 8 414,5 | 9,5 | 112,4 |
| Yunusobod | 3 977,0 | 4,5 | 109,1 |
| Mirzo Ulug’bek | 4 497,7 | 5,1 | 101,5 |
| Mirobod | 6 443,2 | 7,3 | 101,3 |
| Shayxontoxur | 5 575,0 | 6,3 | 103,4 |
| Olmazor | 5 644,7 | 6,4 | 102,2 |
| Sirg’ali | 10 075,2 | 11,4 | 109,4 |
| Yakkasaroy | 5 929,7 | 6,7 | 116,3 |
| Yashnobod | 20 866,4 | 23,7 | 100,8 |
| Yangihayot | 3 605,3 | 4,1 | 107,5 |
| Chilonzor | 7 834,4 | 8,9 | 106,1 |

## Toshkent shahri hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*

| Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi, *% da* | | Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘sish sur’ati, *% da* |
|---|---|---|
| 102,1 | Uchtepa | 124 |
| 112,4 | Bektemir | 207,6 |
| 109,1 | Yunusobod | 122,3 |
| 101,5 | Mirzo Ulug‘bek | 126,8 |
| 101,3 | Mirobod | 127,9 |
| 103,4 | Shayxontohur | 160,8 |
| 102,2 | Olmazor | 111,3 |
| 109,4 | Sirg‘ali | 117,7 |
| 116,3 | Yakkasaroy | 113,2 |
| 100,8 | Yashnobod | 98,7 |
| 107,5 | Yangihayot | 141,3 |
| 106,1 | Chilonzor | 88,6 |

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o‘sish sur’ati eng yuqori ko‘rsatkich Bektemir (207,6 %), Shayxontohur (160,8 %), Yangihayot (141,3 %) hamda Mirobod tumanlarida (127,9 %) qayd etildi.

## Toshkent shahri jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Shaharda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Yashnobod tumani (shaharda sanoat ishlab chiqarish hajmining 23,7 % ) hamda Sirg’ali (11,4 %), Bektemir (9,5 %), Chilonzor (8,9 %) va Mirobod (7,3 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Yangihayot tumani (4,1 %), Yunusobod (4,5 %) hamda Uchtepa (6,0 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Bektemir (158390,4 ming so‘m), Yashnobod (73899,0 ming so‘m) hamda Sirg’ali tumanida (65870,0 ming so‘m) shaharda o‘rtacha daraja ko‘rsatkichidan (6734,7 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Shahar bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 10550,0 ming so‘mdan yuqori ko’rsatkich Bektemir tumanida – 109770,7 ming so‘mni, Sirg’ali tumanida – 34094,2 ming so‘mni, Yashnobod tumanida – 22012,0 ming so‘mni, Mirobod tumanida –16465,7 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Toshkent shahri | 30 430,8 | 13 500,5 |
| Uchtepa | 18 470,5 | 11 158,9 |
| Bektemir | 158 390,4 | 109 770,7 |
| Yunusobod | 10 989,0 | 4 619,3 |
| Mirzo Ulug’bek | 14 164,6 | 5 901,5 |
| Mirobod | 43 738,5 | 16 465,7 |
| Shayxontohur | 15 629,2 | 5 033,6 |
| Olmazor | 14 512,2 | 8 602,1 |
| Sirg’ali | 65 870,0 | 34 094,2 |
| Yakkasaroy | 47 405,1 | 15 787,7 |
| Yashnobod | 73 899,0 | 22 012,0 |
| Yangihayot | 23 269,5 | 14 562,4 |
| Chilonzor | 29 163,8 | 12 285,2 |

## <u>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi</u>

*2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 49,8 trln. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 33,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 71,8 %),Yunusobod (52,4 %),Yangihayot (49,1 %) hamda Yakkasaroy (43,3 %) tumanlarida kuzatildi.






Toshkent shahar hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Yashnobod (16,6 %), Mirobod (23,9 %), Bektemir (26,1 %) hamda Sirg’ali (29,6 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra)*

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,6 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,1 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 12,8 % i) Olmazor tumanida, 2,0 mingtasi (12,1 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (11,4 %) Uchtepa tumaniga, 1,8 mingtasi (10,6 %) Yunusobod tumaniga, 1,5 mingtasi (8,7 %) Mirzo Ulug'bek tumaniga, 1,4 mingtasi (8,7 %) Shayxontohur tumaniga to'gri kelmoqda.




2022- yilning yanvar-oktabr oylarida shahardada 1327 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 166 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi 12,5 %) Olmazor tumanida, 143 tasi (10,8 %) Yunusobod tumanida, 130 tasi (9,8 %) Chilonzor tumanida, 127 tasi (9,6 %) Yashnobod tumanida, 127 tasi (9,6 %) Uchtepa tumanida hamda 126 tasi (9,5 %) Mirzo Ulug'bek tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*2022- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2126 ta), Chilonzor (2008 ta), Uchtepa (1886 ta), Yunusobod (1 763 ta) hamda Shayxontohur (1 439 ) tumanlarida qayd etildi.

**Toshkent shahrida eng ko‘p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**
*(2022- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




**Toshkent shahrida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**
*(2022- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




2022-yilning 1-noyabr holatiga ko‘ra Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (586 ta), Yangihayot (633 ta), Mirobod (961 ta), Sirg’ali (1056 ta), Yakkasaroy (1261 ta), Yashnobod (1425 ta), Mirzo Ulug’bek (1454),Shayxontohur (1439), Yunusobod (1763), Uchtepa (1886) tumanlarida qayd etildi.


**Sanoat statistikasi bo’limi**

*Tel.: (71) 203-88-16*